

SUYIMA G'ANIYEVA TADQIQOTLARIDA ALISHER NAVOIYNING AXLOQIY VA FALSAFIY QARASHLARI TALQINI

Xalimova Marjona Sherali qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi
1-kurs magistranti

E-mail: xalimovamarjona091@gmail.com

Ilmiy rahbar: **To'rayev Laziz**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots,

E-mail: laziz_torayev@tsuos.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek navoiyshunoslik maktabining atoqli olimasi Suyima G'aniyeva ilmiy ishlari asosida Alisher Navoiyning axloqiy va falsafiy qarashlari tadqiq qilingan. Tadqiqot davomida Alisher Navoiy asarlaridan olingan parchalar tahlil qilinib, kengroq izohlab berilgan. Maqolada Alisher Navoiyning komil inson, saxovat, kamtarlik va ijtimoiy adolat haqidagi falsafiy g'oyalari bugungi kun uchun qanchalik dolzarb ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, Suyima G'aniyeva, navoiyshunoslik, axloq falsafasi, komil inson, "Mahbub ul-qulub", matnshunoslik, tasavvuf, amaliy axloq, ijtimoiy adolat.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭТИЧЕСКИХ И ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ АЛИШЕРА НАВОИ В ИССЛЕДОВАНИЯХ СУИМЫ ГАНИЕВОЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе научных трудов известного ученого-навоиоведа Суимы Ганиевой исследуются морально-философские взгляды Алишера Навои. В ходе исследования проводится анализ цитат из произведений Навои с их подробным авторским комментарием и интерпретацией. Через призму личного отношения автора раскрывается актуальность философских идей Навои о совершенном человеке, щедрости, скромности и социальной справедливости для сегодняшнего дня.

Ключевые слова: *Алишер Навои, Суима Ганиева, навоиведение, философия морали, совершенный человек, "Махбуб ул-кулуб", текстология, суфизм, практическая этика, социальная справедливость.*

THE INTERPRETATION OF ALISHER NAVOI'S MORAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE RESEARCH OF SUYIMA GANIYEVA

ABSTRACT

Based on the scientific works of the prominent Navoi scholar Suyima Ganiyeva, this article examines the moral and philosophical views of Alisher Navoi. In the course of the research, quotes from Navoi's works are analyzed and comprehensively interpreted through the author's personal commentary. Furthermore, the relevance of Navoi's philosophical ideas concerning the perfect human (al-insan al-kamil), generosity, humility, and social justice for the modern era is highlighted through the author's personal perspective.

Keywords: *Alisher Navoi, Suyima Ganiyeva, Navoi studies, moral philosophy, perfect human, "Mahbub ul-kulub", textual criticism, Sufism, practical ethics, social justice.*

KIRISH

Har qanday millatning o'zligini anglashi va ma'naviy yuksalishi uning o'tmishda yashab ijod etgan mutafakkirlari merosini qanchalik chuqur anglagani bilan belgilanadi. Sharq uyg'onish davrining eng yorqin siymosi, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodi shunchaki adabiy meros emas, balki chuqur falsafiy-axloqiy tizimdir. Alisher Navoiy ijodini tizimli o'rganish, uning asarlaridagi falsafiy qatlamlarni ochish va matnlarni kelajak avlodga sof holatda yetkazishda XX-XXI asr o'zbek navoiyshunosligi ulkan yo'lni bosib o'tdi. Ushbu maktabning eng yirik va fidoyi namoyandalaridan biri O'zbekiston Qahramoni, professor Suyima G'aniyevadir. Olima o'zining ko'p yillik ilmiy faoliyati davomida Alisher Navoiy asarlarining matnshunoslik muammolari bilan shug'ullanish barobarida, shoirning axloqiy prinsiplari va falsafiy dunyoqarashini tadqiq etishga ulkan hissa qo'shdi. G'aniyevaning tadqiqotlarida Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlari, inson va jamiyat munosabatlariga oid konseptual xulosalari chuqur tahlil etilgan bo'lib, ularni bugungi kun nuqtai nazaridan turib tahlil qilish muhim akademik qimmatga ega.

Suyima G'aniyeva ilmiy faoliyatining boshqalardan ajratib turuvchi asosiy xususiyati shundaki, u Alisher Navoiy falsafasini quruq nazariyalar yordamida emas, balki bevosita matn ustida ishlash, qo'lyozmalarni qiyoslash va so'z ma'nolarini chaqish orqali tadqiq etdi. Olima Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Mahbub ul-qulub", "Munshaot" kabi o'nlab asarlarini nashrga tayyorlash jarayonida matnshunoslikni shunchaki harflarni ko'chirish emas, balki muallifning ruhiy olami va falsafiy konsepsiyasini qayta tiklash san'ati darajasiga ko'tardi. Ayniqsa, shoirning hayoti so'nggida yozilgan va uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari yakuni hisoblangan

“Mahbub ul-qulub” asari Suyima G‘aniyeva tadqiqotlarida markaziy o‘rinni egallaydi. Olima ushbu asarni tahlil qilar ekan, undagi har bir qatlam shunchaki nasihatnoma emas, balki jamiyatni isloh qilishga qaratilgan amaliy dastur ekanini ta‘kidlaydi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, Alisher Navoiy falsafasida axloq – shunchaki shaxsiy xislat emas, balki jamiyatning tizimli mavjudligini ta‘minlovchi fundamental ijtimoiy kategoriyadir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu ijtimoiy kategoriyaning asosi esa Alisher Navoiy falsafiy dunyoqarashining o‘zagini tashkil etuvchi “Komil inson” muammosiga borib taqaladi. Bu tushuncha bevosita tasavvuf falsafasi, xususan, Xojagon-Naqshbandiya tariqati g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lsa-da, Suyima G‘aniyeva o‘z ishlarida Navoiy tasavvufini quruq aqidaparastlikdan uzoq, hayotiy va insonparvarlik xarakteriga ega amaliy tizim sifatida talqin qilgan. Alisher Navoiy o‘z asarlarida inson qadrini uning nasl-nasabi yoki boyligi bilan emas, balki ma‘naviy dunyosi va axloqi bilan o‘lchab, “Mahbub ul-qulub”da: *“Kishi nafsi ammorani tiymoq bilan odam bo‘lur, nafsiga bo‘ysungan hayvondir, baki andan ham kamroq”*, – deb uqtiradi. Shoirning ushbu fikrini tahlil qilar ekanmiz, uning falsafasida inson bo‘lib tug‘ilish va inson bo‘lib yashash o‘rtasida ulkan farq borligini ko‘ramiz. Inson o‘z ichidagi hayvoniya instinktlarni, ya‘ni nafs, g‘azab va takabburlikni aql hamda axloq yordamida jilovlay olgandagina haqiqiy “odamlik” maqomiga ko‘tariladi. G‘aniyeva o‘z tadqiqotlarida Alisher Navoiyning aynan mana shu o‘z-o‘zini tarbiyalash va ichki islohot g‘oyasini birinchi o‘ringa olib chiqish orqali, komil insonni jamiyatdan uzilgan tarkidunyochi zohid emas, balki odamlar ichida yashab, ularga xizmat qiladigan shaxs sifatida ta‘riflaydi.

Olimaning ilmiy izlanishlaridan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy komil insonining eng muhim poydevorlaridan biri sifatida saxovat va himmat tushunchalarini ko‘rsatish mumkin. Navoiy tizimida saxovat – insoniylikning eng oliy ko‘rinishi bo‘lib, shoir moddiy boylikka ruju qo‘yishni qoralaydi va to‘plangan mol-dunyo faqat muhtojlarga yordam berishgagina xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi. Bu haqda gapirganda shoir: *“Saxovat odamiyg‘a sharaf va iymon nishonidir. Saxiydirki, Haq uni do‘st tutar va xalq aning madhini aytar”*, – deb yozadi. Ushbu jumladan ko‘rinadiki, Alisher Navoiy saxovatni shunchaki pul ulashish deb emas, balki ichki ma‘naviy ehtiyoj, ya‘ni “iymon nishoni” sifatida baholaydi. Inson o‘zidagi bor narsani – bu ilm, moddiy boylik yoki shunchaki yaxshi so‘z bo‘lishi mumkin – boshqalar bilan baham ko‘rganida, o‘zining ijtimoiy mas‘uliyatini anglay boshlaydi. Suyima G‘aniyeva alohida ta‘kidlaganidek, Navoiyning o‘z hayoti va ijtimoiy faoliyati, xususan yuzlab jomelar, ko‘priklar,

madrasalar qurdirgani hamda olimlar va talabalarga nafaqa tayinlagani uning ushbu falsafiy qarashining real amaliy isboti edi.

Saxovat bilan bir qatorda, Alisher Navoiy insonni halokatga olib boruvchi eng katta illat sifatida manmanlik va kibrni ko‘radi hamda unga teskari o‘laroq kamtarlik konsepsiyasini ilgari suradi. Uning fikricha, inson qanchalik yuksak maqomga erishsa, shunchalik kamtar bo‘lishi lozim bo‘lib, “Hayrat ul-abror” dostonida bu holat: *“Tavozu’ kishini baland aylagay, takabbur o‘zini kamand aylagay”*, – deya ifodalanadi. Bu baytda Navoiy juda go‘zal bir dialektik qonuniyatni bayon etmoqda: kimki o‘zini past olib, kamtarlik qilsa, jamiyat va Yaratgan oldida uning martabasi baland bo‘ladi, kimki kibrga berilib, o‘zini hammadan ustun qo‘ysa, o‘z-o‘zini halokat tuzog‘iga, ya‘ni kamandga tashlagan bo‘ladi. Suyima G‘aniyeva ushbu qarashlarni tahlil qilgan ekan, Alisher Navoiy falsafasidagi kamtarlik g‘oyasi inson munosabatlarini yumshatish va jamiyatda o‘zaro hurmat muhitini yaratish uchun asosiy ijtimoiy vosita ekanini ko‘rsatib beradi.

Shu bilan birga komil shaxs shakllanishida ilm va amal uyg‘unligi Alisher Navoiy falsafasining ajralmas qismi hisoblanadi. Shoir ratsionalistik qarashlarida ilm – qorong‘ulikni yorituvchi nur, biroq u faqat amaliyot bilan go‘zaldir, degan g‘oyani himoya qiladi va amalsiz olimni mevasiz daraxtga o‘xshatib, “Mahbub ul-qulub”da shunday yozadi: *“Ilm amalsiz – shami ziyosizdir va daraxt mevasiz. Bilganini qilmagan vofasiz, amalsiz ilm – bebaqodir.”* Ushbu jumla bugungi kun ilm-fani va ta‘lim tizimi uchun ham g‘oyat dolzarb bo‘lib, Alisher Navoiy nazarida ilm shunchaki yodlangan ma‘lumotlar yig‘indisi emas, balki insof va adolatga boshlovchi, insonning xatti-harakatlarida aks etuvchi kuchdir. Suyima G‘aniyeva o‘zining ilmiy izlanishlarida Alisher Navoiyning ushbu ratsionalistik va axloqiy qarashlari uyg‘unligini alohida ta‘kidlab o‘tgan.

Insonning ichki ma‘naviy islohoti haqidagi g‘oyalar mantiqiy ravishda Alisher Navoiyning ijtimoiy adolat va davlat falsafasiga ko‘chadi. Alisher Navoiy nafaqat ijodkor, balki Husayn Boyqaro davlatida yuqori lavozimlarda ishlagan yirik davlat arbobi ham bo‘lgani sababli, uning asarlarida davlat boshqaruvi, shoh va xalq munosabatlari juda hayotiy tarzda tahlil qilingan. Suyima G‘aniyeva o‘zining “Navoiy va davlat boshqaruvi” kabi tadqiqotlarida shoirning adolat prinsiplarini o‘rganar ekan, davlatning mustahkamligi shohning adolati va xalqning farovonligi bilan o‘lchanishini ko‘rsatadi. “Saddi Iskandariy” dostonidagi *“Adolat bila mamlakat obod bo‘lur, zulm ila el xonavayron bo‘lur”* degan satrlar buning yaqqol dalilidir. Bu yerda davlat boshqaruvining fundamental qonuni bayon etilgan: adolat – davlat poydevoridir, agar boshqaruvda adolat bo‘lsa, mamlakat gullab-yashnaydi, aksincha zulm egallasa, xalq norozi bo‘lib, davlat ichidan tanazzulga yuz tutadi. G‘aniyeva

Alisher Navoiyning ushbu qarashlarini tahlil qilib, uning “ideal shoh” konsepsiyasini ochib beradi va “Mahbub ul-qulub”dagi “*Shoh ulki, ul el ko‘nglini ovlayg‘ay, raiyyat parvarishini o‘zig‘a farz bilg‘ay*” degan jumla orqali shohni xalqning xizmatchisi deb biladi. Mutloq monarxiya hukmron bo‘lgan o‘rta asrlarda shohga raiyyat parvarishini farz deb eslatish chuqur ijtimoiy tafakkur mahsuli bo‘lib, G‘aniyeva bu g‘oyalarning bugungi kun demokratik va huquqiy davlat tamoyillari bilan to‘liq hamohangligini ilmiy asoslab berdi.

Suyima G‘aniyevaning navoiyshunoslikdagi o‘rnini qiyosiy tahlil qilganda uning yondashuvining o‘ziga xosligi yanada yaqqol ko‘rinadi. Masalan, sovet davri navoiyshunosligida mafkuraviy tazyiq tufayli Alisher Navoiy ijodidagi tasavvufiy, diniy va falsafiy qatlamlarni chetlab o‘tishga yoki ularni faqatgina quruq didaktika deb baholashga urinishlar bo‘lgan bir paytda, Suyima G‘aniyeva shoir ijodiga obektiv va tizimli yondashdi. U shoirni sotsialistik realizm qoliplariga solishga harakat qilmadi, balki uni o‘z davri falsafiy kontekstida – Sharq peripatetizmi, islom falsafasi va tasavvuf uyg‘unligida o‘rgandi. Tasavvufni Alisher Navoiy amaliy axloqining asosi ekani va undagi komil inson g‘oyasi insonparvarlik falsafasi ekanini isbotladi hamda Alisher Navoiy barcha tabaqalarning uyg‘unlikda yashashi va har bir qatlamning o‘z axloqiy masuliyati borligini targ‘ib qilganini ko‘rsatib berdi. Shunday qilib, olim Alisher Navoiy dunyosini soxtalashtirmasdan, uning asl mohiyatini tiklashga muvaffaq bo‘ldi va Alisher Navoiy falsafasining har bir jihati yagona oliy maqsadga, ya’ni Insonni ulug‘lashga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, professor Suyima G‘aniyevaning navoiyshunoslik sohasidagi ko‘p yillik tadqiqotlari Alisher Navoiyning falsafiy va axloqiy qarashlarini fundamental ravishda o‘rganish uchun mustahkam poydevor yaratdi. Olimaning ilmiy merosi bizga Navoiy dunyosini yangicha, teranroq va xolis anglash imkonini beradi. G‘aniyeva Navoiy falsafasini quruq nazariy xulosalar shaklida emas, balki “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarning qo‘lyozma matnlari ustida ishlash orqali, har bir so‘zning falsafiy yukini ochib berish orqali isbotladi. Alisher Navoiy asarlaridan keltirilgan va tahlil qilingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, shoir falsafasida axloq mavhum tushuncha emas, balki nafsni tiyish va jamiyatga xizmat qilish orqali erishiladigan tirik g‘oyadir. Alisher Navoiyning adolatli davlat, shohning xalq oldidagi burchi va ijtimoiy tenglik haqidagi qarashlari bugungi kun demokratik jamiyati tamoyillari bilan to‘liq hamohang bo‘lib, Suyima G‘aniyeva ushbu uyg‘unlikni o‘z ishlarida mahorat bilan ko‘rsatib bera olgan. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, Suyima G‘aniyeva talqinidagi Alisher Navoiy falsafasi shunchaki tarixiy meros emas, balki bugungi kunda va kelajakda ham yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalash, ularda

milliy va umuvinsoniy qadriyatlarni shakllantirishda eng asosiy va ishonchli ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Arba'in. Matni nashrga tayyorlovchi Suyima G'aniyeva. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2000
2. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. – To'la asarlar to'plami, 10 jildlik, 4-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2011.
3. Navoiy, A. Arba'in (Qirq hadis). – Toshkent: G'ofur g'ulom nashriyoti, 1991.
4. Alisher Navoiy. «Nasoyim ul-muhabbat» (mukammal asarlar to'plami, 17-tom). – T.: Fan, 2001. – 317. b.